



“YALDO KECHASI” – O‘ZBEKNING DARDINI KUYLAGAN ASAR

Otaqo‘ziyeva Muxlisaxon Maxammadboqi qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti

yo‘nalishi 1-kurs magistranti

+998 91 009 24 15

[*otaqoziyevamuxlisa@gmail.com*](mailto:otaqoziyevamuxlisa@gmail.com)

ORCID 0009-0002-2470-9738

Annotatsiya: Ushbu maqola uchun Hayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” nomli romani obyekt sifatida olinib, undagi obrazlar tizimi sistemali tahlil qilindi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani bilan qiyosiy tahlilga tortilib, umumiy va xususiy jihatlari ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Yaldo tuni, adabiy mistifikatsiya, ustoz, shogird, obrazlar tizimi, avlodlar, mafkura.

Аннотация: В качестве объекта исследования был выбран роман Хайридина Султана “Ялдо кечаси”, и система образов в нем была систематически проанализирована. Роман был подвергнут сравнительному анализу с романом Абдуллы Кодирия “Уткан кунлар”, что позволило выявить его общие и специфические аспекты.

Ключевые слова: Ночь ялдо, литературная мистификация, учитель, ученик, система образов, поколения, идеология.

Annotation: For this article, Hayriddin Sultan’s novel “Yaldo kechasi” was taken as an object and the system of images in it was systematically analyzed. It was subjected to a comparative analysis with Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tkan kunlar”, revealing its general and specific aspects.



Key words: Yaldo night, literary mystification, teacher, student, system of images, generations, ideology.

Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani 2025-yilning 21-dekabr, ya’ni yaldo kechasi kutilayotgan kunda keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilindi. Muallif tomonidan berilgan so‘zboshida va unga berilgan ilk taqrizlarda bu kitob buyuk Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining davomi sifatida yozilgani aytilgan. “...qattol zamon Qodiriyning qo‘lini kishanlab, unga yozish uchun imkon bermaganligi bois fozil izdosh va uvays shogird sifatida yozdi”, – deydi Ibrohim G‘afurov. Darhaqiqat, asar shaklan va mazmunan Qodiriy uslubida yaratilgan. Avvalo, har bir voqelikni bob sifatida nomlash an’anasi, o‘sha davrga xos so‘zlar, iboralar, izofalar, o‘xshash motivlardan foydalanish, soniyan, obraz yaratish mahoratida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘qigan har bir inson Otabek va Kumushdan qolgan yolg‘iz farzand Yodgorbekning taqdiriga, Yodgorbekning ikki o‘g‘li nima sababdan ikki xil yo‘ldan ketganiga qiziqadi. Xayriddin Sulton bu asarni bugungi o‘sib borayotgan yosh avlod o‘qishini juda xohlaydi va ularning diqqatini jalb qilish uchun ham Qodiriy uslubidan foydalanadi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani uchta bo‘limdan tashkil topgan:

Birinchi bo‘limda Otabek va Kumushning nikohi, Homid sababli qutidor va kuyovining qamalishi hamda oqlanishi bayon etiladi.

Ikkinchi bo‘limda so‘z Otabekning Toshkentdan uylanishi, soxta taloq xati va dushmanlarning Otabek tomonidan o‘ldirilishi haqida boradi.

Uchinchi bo‘lim esa Kumushning Toshkentga kelishi va kundoshlar munosabatidan tashkil topgan.



Albatta, hozir faqat bitta syujet chizig'idagi voqealar sanab o'tildi. Bu syujet chizig'i fonida tarixiy voqealar aks etgan bo'lib, o'sha davrdagi Qo'qon xoni Xudoyorxon va Musulmonqullarning siyosati, Turkistonning fojiasi tasvirlangan.

Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani ikki bo'limdan tashkil topgan bo'lib, birinchi bo'limda Otabek va Kumushning farzandi Yodgorbek taqdiri yoritilsa, ikkinchi bo'lim Yodgorbekning o'g'illari – Ozodbek va Odilbekning kurashlaridan tashkil topgan.

Xayriddin Sulton Qodiriy singari ushbu asarni yozishdan oldin ko'plab manbalar bilan tanishgan, arxivdagi ma'lumotlarni o'rgangan, aynan o'sha davrda yuz bergan voqea-hodisalarni chuqur tahlil qilgan. Asarni o'qib har birimiz bunga iqror bo'lamiz. Asar muqovasida ham Xayriddin Sultonga "Tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to'qima muallifi" deya ta'rif berilgan.

Xayriddin Sulton bu asar uchun epigrafdan foydalanadi. Epigraf muallifi Muhammad Sharif Gulxaniydir:

"Bu nechuk tunkim, oni tongi yo'q,

Yo muazzinlarining bongi yo'q". [Qodiriy A. O'tkan kunlar. B.11]

Darhaqiqat, bu epigraf bilan asarni ramziy ma'noda bog'laydigan bo'lsak, o'zbekning o'zini o'zi mustamlaka qo'liga topshirib qo'yishi kunning tunga joy bo'shatib berishini va bu tunning tongi hali-beri otmasligini, lekin, albatta, har bir tundan so'ng yog'dularini atrofga taratib, quyosh chiqib kelishiga umid va ishonchni tushunamiz.

Muallif qalamga olmoqchi bo'lgan davrdagi hech bir voqeani nazaridan chetda qoldirmaydi. Usmon Qur'onini vatanga qaytarish voqearasimi, 1928-yilgi "Hujum" operatsiyasi deysizmi hamma-hammasi bu romandan joy olgan.



Bundan tashqari dinni yaxshi bilgan obrazlar tilidan Qur'oni Karimdan iqtiboslar, hadisi sharifdan namunalar keltiradi ("Najot" gazetasida bosilgan musiqa ilmi to'g'risidagi maqolaga bildirilgan raddiyaga javob tariqasida Nusratxon to'ra tomonidan ishlatilgan hadisni eslang).

"Ummul mo'minun hazrat Oishai siddiqaning huzuriga hazrat Abu Bakr raziyallohu anhumo kirdilarki, iydi qurbon kunlari edi. Ikki joriya xotun doira cholishub turib edilar. Hazrat payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam o'zlarini o'rtgan (yashirmoq) edilar. Hazrat Abu Bakr alarni (ya'ni joriyalarni) yoqturmadilar. Hazrat payg'ambarimiz dedilarki: "Qo'ying, yo Abu Bakr! Zeroki, ayyomi iyddur". [Sulton X. Yaldo kechasi. B.235]

Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "Qovoq devonaning belbog'i" deb nomlangan bir bob mavjud. Bunda muallif muhim ma'lumot (Otabekning Toshkentdan uylangani)ni bir devonaning tilidan aytadi. Xayriddin Sulton ham shu yo'sun Rafiq maxsumning xarom ishlarini o'quvchilarga bangilar tilidan yetkazadi va bob nomini "Xudoning bir bandasi" deb nomlaydi.

Biz yaxshi bilgan obrazlarni ham "O'tkan kunlar"da qanday chizilgan bo'lsa, o'sha rang bilan bo'yaydi. Masalan, Oftob oyim Kumushni hech qachon Toshkentda qolishiga unamagan. Yakka-yolg'iz qizini musofir yurtda yurishiga chidalmasa, qizidan qolgan Yodgorini tashlab qo'yarmidi?!

"Oftob oyim, harchand jigar-bag'ri o'rtanib yonmasin, Toshkandga borishg'a yuragi bardosh bermasligini aytib, yo'ldan qoldi. Kumushbibi o'limidan keyin bu tosh shahar oyimning nazarida ajal timsolig'a aylangan edi. Shu bois qutidor va usta Alim tomonidan qiling'an ko'p iltijo va tavallolardan so'nggina Yodgorbekni zinhor-bazinhor qudalari qo'lida qoldirmasliq sharti bilan yuborishg'a arang ko'ndi va nabirasining ortidan yig'lay-yig'lay duo qilib qoldi". [Sulton X. Yaldo kechasi. B.57-58]



“O‘tkan kunlar”ning xotima qismida Otabek va Kumushdan qolgan farzandga Yodgorbek deb ism qo‘yilgani, uning Marg‘ilonda muqim yashagani, Yodgorbekdan ikki o‘g‘il tug‘ilgan bo‘lib, bittasi davlat idorasida, bittasi bosmachilar orasida ekani haqida aytib o‘tilganini bilamiz. Xayriddin Sultonning eng katta yutug‘i mana shu to‘rt enlik xotimadan butun bir roman yozdi, yozganda ham maromiga yetkazib yozdi. Albatta, bir ota-onadan tug‘ilgan farzandlar har xil mafkura ostida yashashlari uchun avvalo ular boshqa-boshqa sharoitda tarbiya topishlari lozim edi. Ozodbekni sho‘ro hukumati boqdi va o‘qitdi. Odilbek esa chin musulmon va vatanparvar bir insonning qo‘lida voyaga yetdi. Ularning har ikkisi ham ayanchli o‘lim topdi. Ikkisi ham vatan xoini sifatida o‘ldirildi.

Yodgorbek o‘lkamizdagi barcha jadidlarning, Ozodbek sho‘ro hukumati tomonidan aldanganlarning, Odilbek esa vatan tuprog‘ini kofir bosqinchilardan tozalamoqchi bo‘lgan qo‘rboshilarning umumlashma obrazi deya olamiz. Rafiq maxsum obrazi esa “O‘tkan kunlar”dagi Homid obrazining avlodi deb ayta olamiz. Chunki Homidda ham Rafiq maxsumdagi kabi illatlar mavjud edi: “Darbozadan kirishim ila ishxona ichida kimningdir yig‘lab-yolborg‘an tovshini eshitib ajabsindim va ishxona eshigini ochib kirsam, imonsiz Homid qayning‘a zo‘rliq qilib turg‘an ekan...” [Qodiriy A. O‘tkan kunlar. B.216]

Asar qahramonlariga berilgan ismlar ham ko‘plab ma‘no tashiydi. To‘g‘ri, Otabekning farzandiga Yodgorbek ismini Qodiriy qo‘ygan, ya‘ni u onasi Kumushdan yodgor bo‘lib qolgan. Xayriddin Sulton esa Yodgorbekning o‘g‘illariga mos ismlar tanladi: biri o‘zi tarbiya topgan mafkuraning ta‘sirida ozodlikni istadi, ikkinchisi esa diniy va dunyoviy adolat o‘rnatilishini, Turkistonning yerosti va yerusti boyliklari, haq-huquqi, erki va dini o‘z qo‘lida bo‘lishi uchun kurashdi.

Muallif obrazlarning har biriga sinchiklab ism tanlayotganda negadir Zumradbibining singlisini Zaynab deb nomlaydi. Bu ayollarning ota-onasi Usta Sayfi va Zulayho edilar. Ular Otabek bilan shaxsan tanish odamlar bo‘lgan.



Kumushning qotili – majnuna Zaynab to‘g‘risida bilmasliklari mumkin emasdi. Ismi ortidan taqdiri ham o‘xshab qolmasin, deya ilk farzandlariga Saodat ismini qo‘ymagan ota-ona bu ismdan yiroq turishlari darkor emasmidi?! Mana shu yerda mantiqiy xatolikka yo‘l qo‘yilgan.

Asar uchun xronikali syujet turi tanlab olingan. Ushbu romanda uchta asosiy syujet chizig‘i bor. Bular:

1. Yodgorbek va uning jadidchilik faoliyati;
2. Ozodbek va u ishongan sho‘ro hukumati;
3. Odilbek va bosmachilik harakati bilan bog‘liq syujet liniyalari.

Bularga qo‘shimcha ravishda Otabek, Zumradbibi, Nusratxon to‘ra, Rafiq maxsum bilan bog‘liq syujet liniyalari ham mavjud bo‘lib, ular asosiy syujet chiziqlariga yonma-yon tarzda rivojlanadi, ularni to‘ldiradi va asarni yaxlit bir butun qiladi.

Lekin menda “Yaldo kechasi” romani xususida qator mulohazalar bor. Qodiriy o‘z asari avvalida “Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlik, deydilar” [Qodiriy A. O‘tkan kunlar. B.3] degan edi. “O‘tkan kunlar”ning davomi sifatida e‘tirof etilayotgan “Yaldo kechasi”da ham bu xususiyatni har bir o‘quvchi kutadi. Ya‘niki, Otabek va Kumushning baxtiyor damlarini, kundoshlik turkiy xalqlarning ma‘lum ma‘noda ichidan yemirayotgan keraksiz urf-odati ekanligi haqidagi fikr roman bosh qahramonlari uchun shior darajasida emasligi kishini taajjubga soladi. Birinchi qismda Yodgorbek onasining qabrini ziyorat qiladi, ularning fojiasini eslab kuyinadi, otasining qabrini izlab uzoq joylarga safar qiladi. Lekin asarning ikkinchi qismida faqat bir joyda: Usmon Qur‘onini Vatanga qaytarishda bu ish otasining orzusi ekanini Ozodbek yodga oladi. Ozodbek va Odilbek butun hayotlari davomida na bobolari Otabekni, na momosi Kumushni eslamaydi. Ularning taqdiralaridan xulosa chiqarmaydilar yoxud ularning ruhlaridan madad so‘ramaydilar va haqlariga



duo ham qilmaydilar. Mayli, Ozodbekni davlat muassasasi tarbiyalagan deb oqlashimiz mumkin. U Zumradbibi oilasida kam yashagan. Lekin Odilbekni tarbiyasi bilan uning ota-bobolarini yaxshi biluvchi tarixchi, jadid, noshir Nusratxon domla shug‘ullangan edi-ku?!

Yana savol tug‘iladi: Bu farzandlarning tarbiyasi bilan shug‘ullanguvchi onasi qayerda qoldi? Zumradbibi Yodgorbek bilan turmush qurgungacha va undan keyin Ozodbek tug‘ilib, unga Oyniso xonim mehribonlik qilayotgan davrlardagina faol obraz edi. Keyin u asar voqealaridan chetga chiqdi va ikkinchi qismgacha deyarli ko‘rinmadi. Barcha onalarning farzandlariga ajdodlarining mardlig-u jasoratlari to‘g‘risida aytib bergisi keladi va jadidlarning kelajagida mana shunday “tirik tarix” onalarning roli beqiyos. Lekin asarda mana shunday ona va farzand munosabati yetarlicha yoritilmagan. Mana shu yerda biz asarda ayollar obrazining o‘rni kam va ularning roliga yetarli ahamiyat berilmagan deb ayta olamiz. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Kumush ham, Zaynab ham, O‘zbek oyim va Oftob oyimlar ham o‘ziga xos xarakter darajasiga ko‘tarilgan edi. Ammo uning mantiqiy davomi sifatida e’tirof etilayotgan “Yaldo kechasi” romanida birgina Oyniso xonimning jasoratini inobatga olmaganda asosiy qahramonlar fonida ayol obrazlar yaqqol ko‘zga tashlanmaydi va syujet liniyasi rivojlanishida hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Go‘yo romanning birinchi va ikkinchi qismi orasida bir qancha vaqt qalamga olinmagandek, ikki bo‘lim o‘rtasida yillar turadi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabek va Kumushning muhabbati fonida xonliklar davridagi siyosiy vaziyat va tarixiy voqealar ochib beriladi. Lekin “Yaldo kechasi” romanida obrazlar tasvirlanayotgan davrning ma’lum siyosatiga xizmat qiladilar xolos. Ya’ni ularning shaxsiy hayotlari ikkinchi darajaga tushib qolgan. Masalan, Ozodbek oilasi bilan deyarli aloqa qilmaydi, davlat odamiman deya turmush qurmaydi, Odilbek ko‘ngil qo‘ygan qizni ham “qizillar” o‘ldirib ketishadi.



Shunga qaramasdan, biz shuni aniq ayta olamizki, Xayriddin Sulton “Yaldo kechasi” romani orqali bugungi kun o‘zbek adabiyotiga yangilik – adabiy mistifikatsiyani olib kirdi. Yaqin o‘tgan tariximizni ko‘proq bilishimiz uchun bu kitob ahamiyatli manba sifatida avlodlarimiz uchun eng qimmatli meros bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent, “Yangi nashr”, 2019. – 368 b.
2. Qodiriy H. Otam haqida. – Toshkent, “Adabiyot va san’at”, 1983. – 224 b.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004. – 296 b.
4. Sulton X. Yaldo kechasi. – Toshkent, “Xaybar-25”, 2025. – 463 b.